



Ochiq kon ishlarining asosiy bosqichlari va jarayonlari.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali "Konchilik ishi" kafedrasida assistenti **Isakulov F.U.**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Konchilik ishi kafedrasida 3F-21YOKI guruh talabasi **Sulxonov D.A**
sulxonovdiyorbek2@gmail.com

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Konchilik ishi kafedrasida 3F-21YOKI guruh talabasi **Abduaxatov M.O'**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Konchilik ishi kafedrasida 3F-21YOKI guruh talabasi **Saitmaxmudov S.A**

Annotatsiya: maqolada konni ochish, ochiq kon ishlari asosiy bosqichlari, kon hududini dastlabki va joriy quritish, kon kapital ishlari, transheyalar o'tish, ochiq kon ishlari asosiy jarayonlari, rudani massivdan ajratib olish ishlari, zaryadlash turlari haqida va konni rekultivatsiya qilish ishlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ruda, puch tog' jinslari, foydali qazilma, asosiy bosqichlar, asosiy jarayonlar, kon kapital ishlar, konni quritish, kapital transheya, qirqim transheya, qoplanish koeffitsienti, rekultivatsiya, qazib yuklash, skvajina, shpur, zaryadlash, mustahkamlik koeffitsienti.

Umumiy holda butun ochiq kon ishlari kompleksi bir-biriga bog'liq bo'lgan quyidagi ishlab chiqarishning asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi:

1. Karyerning kon kapital ishlari olib borilishi mo'ljallangan qismini tayyorlash.
2. Konni quritish va yer yuzasidan kelishi mumkin bo'lgan suvlardan himoyalash.
3. Kon kapital ishlari.
4. Konni qazib olish ishlari.
5. Qazib olish ishlari tugallangandan keyin konni rekultivatsiya qilish ishlari.

Konning kon-kapital ishlari olib boriladigan qismini tayyorlaganda kon kapital ishlari olib borish uchun sharoit yaratish, ya'ni o'rmonlarni kesish, to'ngalarni kovlab olish, daryo va irmoqlarni karyer maydonidan uzoqlashtirish, botqoqliklarni quritish, bino va inshootlarni buzish, avtomobil trassalari va temir yo'llarni boshqa yerga olish, shuningdek elektr uzatish liniyalari va telefon aloqalarini xavfsizlantirish ishlari amalga oshiriladi. Konning yuzaqismini, ya'ni nanoslarni quritish va konning ustki qismidan suvni chiqarib tashlash odatda qurituvchi drenaj kanavalar yordamida amalga oshiriladi. Konni dastlabki quritish -qazib olish ishlari boshlashdan oldin o'tkaziladi. Buning uchun konda yer osti drenajlovchi lahimlar o'tiladi yoki konda suv satxini pasaytiruvchi skvajinalar o'tiladi. Karyerga keladigan suvni yo'qotish kombinatsiyalashgan usulda, ya'ni ochiq va yer osti usulida suvni chiqarib tashlash yordamida amalga oshiriladi. Bunda birinchi xolatda suv yiguvchiga to'planadi va nasos yordamida yuzaga chiqariladi, ikkinchi holatda esa, maxsus skvajinalar orqali yer osti drenaj lahimlariga to'planadi va drenaj shaxta stvoli bo'ylab yuzaga ko'tariladi.

Kon-kapital ishlaridan asosiy maqsad –konni ochishdir va kapital xamda qiruvchi transheyalar o'tishdan iboratdir. Kapital transheya ishchi gorizontni ochish uchun xizmat qiluvchi ochiq kon qiya lahimi bo'lib, transport vositalarini yer yuzasidan kongacha yetib borishini ta'minlaydi. Qirqim transheya esa gorizont ochiq kon lahimi bo'lib, foydali qazilmani yoki qoplovchi jinsni qazib olish uchun ish frontini yaratib beradi. Kondagi olib boriladigan qazib olish ishlari bu foydali qazilmaning minimal xarajatlar bilan qazib olinishini



ta'minlashi kerak. Ko'pgina holatlarda foydali qazilmalarni qazib olish paytida eng ko'p kon-qazish ishlari hajmi ochish ishlariga tug'ri keladi va bu ochiq kon ishlarining eng muhim jixati hisoblanadi. Rekultivatsiyaning maqsadi-xududdagi tabiiy sharoitni saqlash, buzilgan yer maydonlarini xalq xo'jaligi ehtiyojlariga yaroqli holga keltirishdir. Rekultivatsiya paytida ma'dansiz tog' jinslaridan hosil etilgan ag'darmalar tekislanib, ularga tuproq yotqiziladi, o'simliklar o'tkaziladi, tabiiy suv oqimlari tiklanadi va konni quritish uchun foydalanilgan skvajinalar yopilib, barraj va boshqalar olib tashlanadi. Tog'jinslarini qazib olishga tayyorlash jarayoni qazib olishning samaradorliginita'minlash maqsadida, tog'jinsining tabiiy holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan jarayonni o'z ichiga oladi. Tog'jinslariniqazib olishga tayyorlashda pog'onadagi qattiqtog'jinslari portlatish yordamida parchalanadi va o'rtacha qattqlikdagi tog'jinslari esa mexanik usul bilan parchalanadi. Mexanikusul bilan maydalash portlatish usuli bilan maydalashga qaraganda ancha foydalidir, chunki unumdorligi yuqori, tannarxi kichik va ishdagi xavfsizligi yuqoridir. Mexanik usul bilan maydalashni mustahkamlikkoeffitsiyenti $f=8$ gacha bo'lgan tog'jinslariga qo'llash mumkin. Tog'jinsi massivini to'g'ridan to'g'ri qazib olish va transport vositasiga yuklash yoki qazib olishning o'zi mashinaning ishchi organi yordamida tog'jinsini bir joydan ikkinchi joyga siljitishi va ag'darmaga bo'shatishiga –qazib-yuklash ishlari deyiladi. Karyerda qazish-yuklash ishlarida ekskavatorlardan keng foydalaniladi. Ekskavator ishlari karyerning asosiy texnologik jarayoni hisoblanadi. Ba'zi karyerlarda esa skreper va buldozerlar qo'llaniladi. Qazish -yuklash ishlari bitta transport vositasi yordamida amalga oshiriladi. Karyerlarda kon massasini tashish uchun turli ko'rinishdagi karyer transportlaridan foydalaniladi. Asosiy transport vositalari:

- temir yo'l transporti;
- avtomobil transporti;
- konveyer transporti.

Temir yo'l transporti tashish masofasi 4 km va undan yuqori, yillik yuk aylanish hajmi esa 25 mln.t va undan yuqori bo'lgan karyerlarda keng qo'llaniladi. Temir yo'l transportida yuk ko'tarish quvvati 100-180t bo'lgan vagon dumpkarlar qo'llaniladi. Lokomotiv sifatida esa, elektrovoz va teplovozlar qo'llaniladi. Yo'lning maksimal qiyaligi 60% . Burilish radiusi 180-200 m. Avtomobil transporti tashish masofasi 4-5 km bo'lgan va yillik yuk aylanish hajmi uncha katta bo'lmagan, ya'ni 15-20 mln.t bo'lgan hollarda karyerda keng qo'llaniladi. Avtomobil transporti temir yo'l transportiga qaraganda ancha afzalliklarga ega: manyovrining kattaligi, qiyaligining kattaligi, ya'ni 150% va burilish radiusining kichikligi. Avtomobil transportining tezligi syezdlarda 10 km/s, asosiy yo'llarda 18-25 km/s. Konveyertransporti (lentali konveyer) karyerda maydalangan kon massasini (bo'lak o'lchami 400 mm gacha) tashish uchun qo'llaniladi. Karyerda mehnat unumdorligi 300 dan 1000 m³/s gacha bo'lgan lentali konveyerlar qo'llaniladi. Ba'zan konveyerlarning quvvati 12000 m³/s gacha yetadi. Konveyer lentasi eni -900 dan 2000mm gacha, xarakatlanish tezligi –2m/sek dan 5 m/sek gacha yetadi. Konveyerlarni qo'llash tashishning uzluksizligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Turg'unov F. F., Nishanov A. I. RESPUBLIKAMIZDAGI KO 'MIR KONLARI VA ULARNI QAZIB OLIHDA PORTLATISH ISHLARINI GIDROZABOYKALAR YORDAMIDA AMALGA OSHIRISH //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. –№. 33. – C. 168-173.
2. Maxmudjanovich X. T. et al. FOYDALI QAZILMA KONLARINI OCHIQ



- USULDA QAZIB OLISHDAN BO‘SHAGAN MAYDONLARNI REKULTIVATSIYASI QILISH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №.C. 738-741.
3. Axbaraliyevich E. M. FOYDALI QAZILMA KONLARINI OCHIQ USULDA QAZIBOLISHDAN BO‘SHAGAN MAYDONLARNI REKULTIVATSIYASI QILISH JARAYONINING BOSQICHLARI //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 26. – С. 226-228.
- 4.Chemezov V.V., Kovrijnikov V.L. “Zemlopolzovanie I rekultivatsiya narushennix zemel pri razrabotke mestorojdeniy zolota ialmazov” Irkutsk 2007 g.
- 5.Vremennaya instruksiya po rekultivatsii zemel, narushennix pri razrabotke mnogoletnemerzlix rossipey Severo-Vostoka SSSR. Magadan 1990 g.
- 6.МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ СТЕПЕНИ ДРОБЛЕНИЯ ГОРНЫХ ПОРОД (<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/1885/1792>)
- 7.YOSHLIK 1 KONIDA SKVAJINA ZARYADI KONSTRUKSIYASI-NING MAQBUL TURINI TANLASH VA ASOSLASH (<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1894>)
- 8.Муталова М. А., Хасанов А. А. Разработка технологии извлечения вольфрама из отвальных хвостов НПО АО «Алмалыкский ГМК» //Universum: технические науки. – 2019. –№. 12-1 (69).
- 9.Хасанов, А. А., Гоибназаров, Б. А., Баратов, С. А., & Абдусаматова, М. А. (2022). Исследование Химического И Минералогического Составов Лежалых Хвостов Ингичкинской Обоганительной Фабрики. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 3(5), 362-370.
- 10.Хасанов, А. С., Хасанов, А. А., & Муталова, М. А. (2020). Разработка рациональной технологии извлечения вольфрамового промпродукта содержащего не ниже 40% WO₃ из отвальных кеков НПО АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат». Композиционные материалы, (4), 144-148.
- 11.Д. М. Курбанбаев, С. И. Эркабаева, И. М. Рахматуллаев, & А. У.Ахмадов. (2022). ВИДЫ, СВОЙСТВА И ОТРАСЛИ ПРИМЕНЕНИЕ ИЗВЕСТНЯКОВ. Uzbek Scholar Journal, 11, 28–32. Retrieved(<https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/437>).
- 12..Шамаев,М. К. ., Ахмадов, А. У. ., Рахматуллаев, И. М. ., & Тоштемиров, У. Т. . (2022). ИЗВЕСТНЯК В ПРИРОДЕ, ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА И НЕКОТОРЫЕ ИХ СВОЙСТВА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ. ARHITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 1(4), 26–30. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/4911>.
- 13.РахматуллаевИскандарМахмудўғли, КулмонбетовАсадбекЮсуфалиўғли. КОНТУРНОЕ ВЗРЫВНИЕ ПРИ ПОДЗЕМНЫХ ГОРНЫХ РАБОТ. Журнал «Новости образования: исследование в XXI Том 1 No 4 (2022). <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1321>.